



EXCHANGE OF LARGESSE AND LETTERS - AS AN IMPORTANT PART OF THE RECEPTION CEREMONY (KHIVA KHANATE KUNGIRATS PERIOD)

Jurabek Polvonov

PhD

Tashkent Military Academic Lyceum "Temurbeklar Maktabi"

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: polvonovjurabek@e-mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Iran, Afghanistan, India, Turkey, Russia, Munis, Ogahi, Bayani, 1843-1846, Muhammad Amin Khan, 1855, cloak, turban, gift, letter, sarpo, gazelle, book.

Received: 13.12.24

Accepted: 15.12.24

Published: 17.12.24

Abstract: In this article, a lot of valuable evidence related to the exchange of gifts and letters with ambassadors in the Khanate of Khiva - an important part of the reception ceremony - has been studied and analyzed.

SOVG‘A-SALOM VA MAKTUB ALMASHINUVI – QABUL MAROSIMINING MUHIM QISMI SIFATIDA (XIVA XONLIGI QO‘NG‘IROTTLAR DAVRI)

Jurabek Polvonov

PhD

Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: polvonovjurabek@e-mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiya, Rossiya, Munis, Ogahiy, Bayoniy, 1843-1846, Muhammad Aminxon, 1855-yil, chopon, salla, sovg‘a-salom, maktub, sarpo, gazlama, kitob.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xiva xonligida elchilar bilan sovg‘a-salom va maktub almashinuvi – qabul marosimining muhim qismiga tegishli ko‘pgina qimmatli dalil ma‘lumotlar o‘rganildi va tahlil qilindi.

ОБМЕН ПРИВЕТСТВИЯМИ И ПИСЬМАМИ КАК ВАЖНАЯ ЧАСТЬ ЦЕРЕМОНИИ ПРИЕМА (ХИВИНСКОЕ ХАНСТВО, ПЕРИОД КУНГРАТОВ)

Джурабек Полвонов

PhD

Ташкентский военный академический лицей «Школа Темурбека».

Ташкент, Узбекистан

E-mail: polnovovjurabek@e-mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Иран, Афганистан, Индия, Турция, Россия, Мунис, Огахи, Баяни, 1843-1846, Мухаммад Амин Хан, 1855, плащ, тюрбан, подарок, письмо, сарпо, газель, книга.

Аннотация: В данной статье изучено и проанализировано множество ценных свидетельств, связанных с обменом подарками и письмами с послами в Хивинском ханстве - важной частью церемонии приема.

Qabul marosimida sovg'a-salom va maktub almashinuviga doir Markaziy Osiyo bilan xorijiy mamlakatlarning elchilik va diplomatik yozishmalarini o'zida aks ettirgan majmualar, chet ellarda va yurtimizda chop etilgan asarlar aniqlandi va ularga tayangan holda, ilmiy tahlil amalga oshirildi.

Xiva hukmdorlarining qator xorijiy davlatlar – Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Rossiya kabi mamlakatlarga yozgan maktublarida, yuborgan elchilariga bergan topshiriq va vazifalari o'z aksini topgan.

Mazkur yozishmalarda asosan ulug' ajdodlardan meros qolgan yakdillik munosabatlarini davom ettirib, maktublar va sovg'alar yuborib turish istaklari, o'zaro elchilik hamda diplomatik aloqalarning turli qirralari yoritilgan. Shuningdek, qator qo'lyozmalarda (masalan, Munis, Ogahiy va Bayoniyning "Xiva solnomalari" nomi bilan ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lgan tarixiy asarlari) o'zbek diplomatiyasining o'ziga xos uslublari, elchilarga oid asosiy talablar, ular zimmasiga yuklatilgan vazifalar haqida aniq va ravshan fikrlar bayon etilgan.

Xiva hukmdorlarining bizgacha yetib kelgan barcha diplomatik yozishmalariga xos dastlabki narsa shuki, ularning hammasi yuborilgan el yoki mamlakatlarning ulug'lari va hukmfarmolariga nisbatan g'oyat katta hurmat bilan bitilgan. Aslida, elchilar orqali yuborilgan bu maktublarni qo'shni yoki uzoq davlatlar, ularning xalqi va hukmdori sha'niga qaratilgan maqtov hamda ezgu tilaklardan iborat bir hujjat shaklida baholash ham mumkin, Faqat yaxshilik va o'zaro hurmatni qaror toptirishga qaratilgan ushbu uslub qadimdan tortib to so'nggi o'zbek xonliklari davrigacha og'ishmay davom etib kelgan.

Xiva xonlaridan biron-tasi vafot topsa va uning o'rniga yangi xon tayinlansa, albatta, bu voqea munosabati bilan qo'shni va aloqada bo'lingan uzoq mamlakatlarga elchilar yuborilgan. Bu mamlakatlar hukmdorlari ham o'z navbatada ana shu elchilarga qo'shib vakillar yuborganlar[1]. Ular, birinchidan, avvalgi xon vafoti munosabati bilan o'z hukumatlarining ta'ziasini izhor etgan bo'lsalar, ikkinchidan, yangi xonning taxtga chiqishini muborakbod qilib, unga hukmdorlarining tabrik maktubi hamda sovg'a-salomlarini topshirganlar. Bayoniyning yozishicha, Rahimqulixon (1843-1846) so'ng taxtga chiqqan Muhammad Aminxon ana shu an'anaga muvofiq darhol "atrof va aknofdag'i qal'a va baladalarning hukmronlarikim, muhabbatnomalar yuborib yakjihatlikdin dam urar erdilar, barchalarig'a julusi xumayunning e'loni uchun paygom yubormoqni munosib ko'rib, har biriga bir kishini tahniyatnoma bila yubordilar, andog'kim

Shukrulla Oqoni Tehronga yuborib, andin Istanbulg'a bormoqni zam amr etib, shohga va halifag'a munosib tuhfa va peshkashlar berib, nomalar topshurdilar va Xo'qang'a Otaniyozbekni tahniyatnoma bila yubordilar, xoni mag'furning vafoti va o'zlarining juluslari axbori uchun Muhammad Sharifboyni Buxoroga yubordilar"[2]. Qat'iy qoidalardan yana biri shu bo'lganki, agar elchi yuborilgan manzilga etib borguncha uni yo'llagan hukmdor vafot topsa, bunday elchining vakolati rasmiy kuchini yo'qotgan hisoblangan va uni borgan joyidagi hukmdor qabul qilmagan hamda u bilan hech qanday muzokaralar yuritmagan. Bunday hollarda elchilar vazifalarini ado eta olmasdan orqaga qaytishga yoki chopar orqali maktub yo'llab, yangi hukmdordan o'z vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat kelgunga qadar o'sha mamlakatda istiqomat qilib turishga majbur bo'lganlar. Bunga misol tariqasida Muhammad Aminxon tomonidan Turkiyaga 1855-yilda elchi sifatida yuborilgan Shukrullo Oqo bilan yuz bergan voqealarni keltirish mumkin. Ma'lumki, bu elchi xalifa huzuriga ravona bo'lishi bilan bir vaqtda Xiva xoni Seraxs tomonga yurish uyushtiradi va u yerda jangda halok bo'ladi. Bu xabarni elchi yo'lda eshitishiga qaramay o'z safarini davom ettiradi. Ammo Istanbulda uni Xiva elchisi sifatida tan olmaydilar va u sulton huzuriga kiritilmaydi.

Shundan so'ng u Xorazmga maktub yo'llab, o'zining elchilik vakolatini yangidan tasdiklanishini iltimos qiladi. Ogahiy "Gulshani davlat"da ana shu voqealar tafsilotini bayon etargan, Xiva taxtiga o'tirgan yangi xon — Sayyid Muhammad Bahodirxonning (1855-1865) Turkiya sultoni Abdulmajidga (1839-1861) maxsus maktub yo'llagani va unda Shukrullo Oqo vakolatini to'la tasdiq etganligini ta'kidlaydi. Solnomada buning isboti sifatida keltirilgan xon maktubida, jumladan, quyidagilar bitilgan edi: "Shukrullo Oqonikim, Muhammad Amin xoni marhumiyning amri bila Rum viloyatig'a marsul bo'lmish erdi, holo Islombul shahrida oliy janoblari xizmatida tavaqquf ko'rgizmishdur, o'z tarafimizdin vakil va elchi qilduq. Oning vakillik va elchiligin qabul etsunlar va Muhammad Aminxon marhumiy oqomizning yuborgon nomasida harna so'z bo'lsa, bizning ham so'zimiz shuldur, eshitsunlar". Ogahiyning yozishicha, "xalifa noma mazmunig'a muttale' bo'lg'ondin so'ng Shukrullo Oqoning elchiligin va Muhammad Aminxoni jannat makonning nomasin qabul qildi. Va Shukrullo Oqoning martabasini burung'idin necha daraja baland etib, vazifasig'a ko'p zaru mol muqarrar qildi va Shukrullo Oqo g'oyatsiz masrur va xushhol bo'lib, bir necha ayyomni Xorazm azimati uchun ruxsat olmoq fikrida o'tkardi". Ayrim hollarda elchilarga yuklatilgan vazifalar haqida ham aniq ma'lumotlar keltiriladiki, ulardan o'zaro siyosiy aloqalarning darajasi haqida, ba'zi muhim tarixiy voqealar to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lish imkoni tug'iladi. Masalan, "Firdavs ul-iqbol"da bayon qilinishicha, 1814-yilda Xurosondan Xivaga kelgan elchilarga xon o'z navbatida elchi qo'shib jo'natar ekan, u bilan birga qo'yidagi mazmunda xabar yo'llaydi: "Agar ellik va itoat izhorida sodiq bo'lsalar, kuz faslida inshoalloh ul tarafg'a azm etkumizdir. Agar el muxolif bo'lsalar, alar

samtig'a nuhzat qilg'umizdir. Agar el bo'lsalar, Saodatqulixon yanglig' akobir va mo'tabar kishilardan ko'p kishi mulozimotga irsol qilib, zakot va xirojni kamo haqqahu yuborsiiilar"[3]. Bundan o'sha yillarda Xurosonning shimoliy hududlari, jumladan, Seraxs va uning atroflari Xiva xonligi tasarrufida bo'lganligi va unga tobe joylar sifatida xiroj to'lab turganligi ma'lum bo'ladi. Yana bir misol, 1845 yili Buxoro amiri Nasrulloxon Xivaga Qo'chqorbek Mirohurni elchi qilib yuboradi. Aftidan, amir Nasrulloxon Xiva hukmdori Rahimqulixonga yo'llagan o'z maktubida uning sha'niga tegadigan tarzda muomalada bo'htan yoki ichki ishlariga aralashish darajasidagi takliflar yo'llagan. Bunga javoban Xiva xoni Qo'chqorbek mirohurga o'z elchisi Raxmatulla Qorako'zni qo'shib Buxoroga jo'natar ekan, Nasrulloxonga quyidagi mazmundagi maktubni topshirishni buyuradi: "Amir Nasrulloning muddaosi agar musolaha qilib borishmoq bo'lsa muxoriba maydoniga chiqsunkim, biz ham ul amrga muhayyo va madaddurmiz. Bu ikki ishning qaysisini ixtiyor qilsa, ul ishga bel bog'lasunkim, ikkisi ham bizning maqsadimizdur"[4]. Shunisi diqqatta sazovor, Xiva solnomalarida mualliflar u yoki bu mamlakatga xonlik tarafidan elchi qilib tayinlangan shaxslarning nomini atash bilan cheklanmasdan, ko'pchilik hollarda, ularning nasl-nasabi, tavallud topgan joyi, xonlikda egallab turgan mavqei haqida ham ma'lumotlar keltirgan. Xonlikning xorijiy aloqalari haqida solnomalarda keltirilgan ma'lumotlardan shu xulosaga kelish mumkin, bu yerda ma'lum tarzda o'ziga xos diplomatlar guruhi shakllangan. Chunki, yuqorida nomlari zikr etilgan elchilar bir emas, balki bir necha martalab turli mamlakatlarga Xiva vakili sifatida safarbor etilgan va ularga har vaqt o'ta muhim davlatlararo muammolarni hal etish vazifasi yuklatilgan.

Turkistondagi uch xonlikning o'zaro munosabatlar faqat orada nizo qo'zg'algan paytlardagina uzib qo'yilgan. Odatda Buxoro yoki Qo'qon xonligidan kelgan elchilarga, albatta, Xiva xoni ham o'z diplomatik vakilini qo'shib jo'natgan. Bu yerdan borgan elchi ham o'z navbatida ularning elchilari hamroxligida vataniga qaytgan. Masalan, 1854-yilda "rabi'ussoniy oyining o'n uchida, dushanba kuni, Buxoro elchisi Abdulvohid Mirahurga Rahmatullo mahram kim, "Qora ko'z" laqabi bilan mashhur, elchilik yusuni bila anga qo'shib, muhabbatnoma topshurub Buxoro sari irsol qilindi". Yoki 1855-yilda "Qo'qonga mu'azzaz va mukarram kishisi O'rinxo'ja Mirasadni elchilik rasmi bila onga musohib qilib, tuhafoti loyiq va tansuqoti muvofiq va musodaqat nomayi topshurub, Xorazmi jannat bazm samtig'a irsol etdi"[5].

Shu tarzda xonliklar o'rtasida uzluksiz bordi-keldilarning amalga oshirilib kelinganidan, tabiiyki ularning poytaxtlarida har birining muqim elchixonasi va doimiy vakilining qaror topishiga extiyoj tug'ilmagan. Bu yerda o'zaro masofalarning yaqinligini ham nazarda tutish lozim bo'ladi. Ammo Turkistondan tashqaridagi xorijiy davlatlar bilan bo'lgan aloqalarda bunday izchillikni ko'rmaymiz. U mamlakatlardan kelgan elchilarga ham elchi qo'shib jo'natish qoidasiga rioya qilingan. Ammo bu yerdan borgan elchi yolg'iz qaytib kelgan takdirda aloqalar ma'lum

muddatga, ularga zarurat tugʻilgunga qadar uzilib turgan, Solnomalardagi maʼlumotlarga qaraganda, elchilar poytaxtga kirish oldida xon tomonidan tayinlangan eʼtiborli aʼyon tomonidan kutib olingan. Xivada xorijdan kelgan elchilarning istiqomat qilishi uchun barcha sharoitlar hozir qilingan maxsus elchixonona boʻlib, chet ellardan kelgan rasmiy vakillar toʻ oʻz yurtlariga qaytgunga qadar ana shu joyda yashashgan. Masalan, Bayoniy 1846-yilda Buxorodan Xivaga kelgan elchilar haqida maʼlumot bergan, jumladan, quyidagilarni yozadi: “Muhammad Aminxonning amri bila shigovulbek elchilarning oldigʻa chiqib, eʼzoz va ikrom ila kelturub elchixonaga tushurdi”. “Gulshani davlat”da 1854-yilda Xivaga kelgan Buxoro elchisi haqida shunday yozilgan: “Buxoro podshohi Amir Nasrullohning elchisi Mirzo Qarovulbegikim, burunroq amiri mazkurnish muhabbatnomasin keltirub, Xivaq shahrida elchixonai humoyunda mutamakkim erdi hazrat sohibqiron umaroyi izom va kubaroyi fihom zumrasidin muqarrabi bargohi sultoni, mahrami asrori nihoniy yaxshi Muhammad dorugʻoni onga elchilik tariqasi bila Buxoro jonibigʻa irsol qildi”[6]. Shu asarning boshqa bir sahifasida keltirilgan maʼlumotlar esa, yuqorida taʼkidlanganidek, ana shu elchixonada hayot kechirish uchun barcha sharoitlar muhayyo boʻlganligini va xorijdan kelgan elchilarning maishati har vaqt xonning diqqat-eʼtiborida turganligini koʻrsatadi.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, xon tomonidan sovgʻa qilingan toʻn hamda ot elchi yoki mehmonlarga tegishli munosabat va xalq koʻz oʻngida xon marhamatiga sazovor boʻlgan muhtaram kishi maʼnosini ham anglatgan. Hukmdor qabuliga tashrif buyurgan N.Ignatyevning maʼlumotlariga asoslanib, elchilik vakillariga xonlik shaharlarida faqat mahalliy kiyim (chopon va salla)larda yurish tavsiya etilganligini bilish mumkin[7]. Chunki, sharq bozorlari aholi gavjum joy boʻlib, yevropacha kiyimdagi odam umumiy olomondan ajralib turgan. Natijada ular xalqning eʼtiborini tortgan.

Oliy qabulga tashrif buyuruvchi elchilar, xon uchun taqdim etilishi kerak boʻlgan maktub va sovgʻalarni qizil baxmal bilan yopilgan patnis hamda yostiqlarda, yoki alohida sandiqchada olib borishgan. Shu bilan birga elchiga ham xon tomonida sovgʻa-salomlar va maktub ham berilgan. Jumladan, “25-kuni Xon menga imperator hazratlariga topshirilishi rejalashtirilgan sovgʻalar, yaʼni egar jabduqli ikkita ot va gilam joʻnatdi; bir vaqtning oʻzida ikki yaqin xon amaldori (mextarlardan biri va toʻshakboshi) menga xonning imperatorga yoʻllagan maktubini topshirdilar va mening savolimga: xon qachon xayrlashuv marosimini tayinlaydi? Mehtar meni shu kuni kechqurun qabul qilsa kerak, deb javob berishdi. Xonning maktubi muhrlangandi”[8].

Xonlikka kelgan xorijliklar haqidagi xabar tegishli idoralar orqali xonga yetkazilgan. Shundan keyin xon ularni qabul qilish yoki qilmaslik haqida qaror qabul qilgan. Agar xorijdan kelgan kishi xon va saroy nufuzini koʻtarishi uchun ahamiyatli deb topilsa, unday kishilar xon qabuliga kirish huquqiga ega boʻlgan. Bunday holatda xonning qabul haqidagi qarorini va qabul

vaqtini qabul qilinuvchiga maxsus amaldor – Yasavul yetkazgan. 1862-yilning yozida Xivaga Istambullik Rashid afandi nomli darvish sifatida kelgan Venger sayyohi A.Vamberi asarida ham bu masalalar haqida qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Undagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali Xiva xonligidagi saroy qabul marosimlaridagi o'ziga xos an'analar haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. A.Vamberining yozishicha, Yasavul (saroy zobiti) u joylashgan xonoqohga kelib, unga Xon sovg'asini topshiradi va kechqurun Arkka Xon qabuliga borish lozimligi haqida xabar beradi. Xon qabulidan maqsad Muqaddas yerdan[9] kelgan darvish Quronning birinchi surasini o'qib, Xonni duo qilishi edi. Belgilangan vaqtdan biroz oldin A.Vamberi saroyga yo'l olganini, yo'lda Xiva xonining Istanbulda elchisi sifatida bo'lib, u yerda bir necha yil yashagan Shukrullabiy bilan saroyga kirib borganini, Yo'lda Shukrullabiy saroyda Xon qabuli paytida o'zini tutish, belgilangan tartib qoidalar haqida tushuntirish berganini yozadi[10].

“Ruznomai safari Xorazm”(“Xorazm safari kundaligi”)[11] dagi ma'lumotlarni o'qir ekanman, bu kundalikda muzokaralarning asosiy ko'rinishi og'zaki muloqot bo'lib, elchi bosh masalani bevosita xon yoki uning nomidan ish olib borgan mehtar bilan ko'rishib muhokama qilgan. Bahs-munozaralar cho'zilib ketgan yoki qaror qabul qilishda bir to'xtamga kelish qiyin bo'lgan hollarda muzokaralar xatlar orqali ham olib borilgan. Ayniqsa, Xivadagi eroniy qullarni ozod qilish borasida xonning yon bosishiga erishmoqchi bo'lgan Muhammad Alixon G'afur aksariyat hollarda maktub yozib, o'z e'tirozlarini bayon qilar va ularga tegishli javob berilishini talab qilar edi. Aytish joizki, maktublar orqali murojaat etishda ham subordinatsiya qoidalariga qat'iy rioya qilingan. Xususan, Eron elchisi ham, ingliz vakili Tomson ham xonga to'g'ridan-to'g'ri emas, mehtarga maktub yo'llash orqali o'z arzlarini bildirishgan[12].

Nigora Allayeva muallifligida Xiva xonligining XVI asr – XIX asrning 70-yillarida qo'shni Buxoro, Qo'qon va Qozoq xonliklari hamda Eron davlati bilan diplomatik munosabatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan “Xiva xonligi diplomatiyasi va savdo aloqalari (XVI — XIX asrlar)”[13] nomli monografiya nashr etilgan bo'lib unda Xiva hukmdorlarining Buxoro, Qo'qon va Qozoq xonlari hamda Eron shohlari bilan o'zaro almashinilgan diplomatik yozishmalarni turi va xarakteriga ko'ra tasniflashga ham e'tibor qaratilgan. Ishda, mahalliy “Solnomalar”da umumiy nom bilan “maktub, noma, maktubot” yoki “kotibat” deb yuritilgan xatlarning vaziyatga qarab “inoyatnoma”, “istimolatnoma”, “ma'ziratnoma”, “muvolifatnoma”, “murosila”, “muhabbatnoma”, “sulhnoma”, “tahniyatnoma”, “fathnoma” singari turlari bo'lganligi ko'rsatib berilgan. Xiva xonlari saroyida xorijiy elchilarni qabul qilish marosimini tasvirlash hamda Muhammad Rahimxon I, Olloqulixon va Muhammad Rahimxon II singari hukmdorlarning shaxsiy jihatlarini yoritish orqali ularning kuchli yetakchilik qobiliyatlari ochib berilgan.

Elchilarga ketishga ruxsat berishdan oldin ularga sovg'a va xil'atlarini berilgan. Elchilar ketishidan uch kun oldin elchilik missiyasini chegaragacha kuzatib boradigan mehmondor tayin

qilinib, Eron podshohi maktubiga javob va boshqa xatlar ham tayyorlanadi. Bu ham Eron davlati bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatishga Xivada jiddiy qarashganidan dalolat beradi. Elchilarga ruxsat berishdan oldin xon o‘z huzuriga chaqiradi, suhbatdan keyin elchilarga qaytishga ijozat berilgan[14]. Xondan qaytishga ruxsat olingach, mehmonlar mehtarning uyiga kelib, xon huzurida qolgan mehtarni kutishgan. Biror soatdan so‘ng mehtar podshoh nomasiga va janob Hoji *sallamulloh* yozganlariga javoblarni olib keldi va ularga qarata: “Manavilar sizlarning xatlaringizga javoblar. Xudo panohiga topshirdik, omon bo‘linglar. Boshqa gaplaringiz bo‘lsa, marhamat, aytinglar” degan[15].

Buxoro hokimining noloyiq xulqidan Olloqulixonning ko‘ngliga g‘ubor tushib, uning ko‘nglini bilish uchun quyidagi mazmunda noma yozdirdi: *“Do‘stlikka vafo qilishlik fazilatli kishilarga yot emasdirkim, bir tarafdin muhabbat bog‘ining gullariga va beto‘xtov parvarishlar bo‘lganda, ikki tarafdin ham shunday sobit qadamlilik munosabati bo‘lsa samarasi bundan ham a‘lo bo‘lar edi. Agar kim do‘stlikdan or qilib, dushmanlikni ustun qo‘ysa bu haq taqdir dur, albatda bu qancha vaqt va zamon o‘sa ham sirligicha qolib ketmaydi”*.

Va maktubni davlatning ishonchli mulozimlaridan, sadoqatli Gadoyniyoz mahramga topshirib: *“Agar Buxoro xoni qilgan qilg‘iliklarini davom ettiraversa, aytgilkim, Marvga ilg‘or tariqasida yuborgan navkarlarini qaytarib olsin. Bo‘lmasa urush va talash qilamanki, keyin zoe‘yo‘qotgan narsalari uchun ginaxonlik va yig‘i-nola qilib yurmasin”*[16], — dedi.

Gadoyniyoz mahram tegishli yo‘rqnomalar olgandan so‘ng tezlik bilan Buxoroga yo‘l oladi. Nasrulloxonning huzuriga borib, tayinlangan gaplarni aytib maktubni unga topshiradi. Noma mazmuni bilan tanishgach, (Nasrulloxon elchiga) katta iltifotlar ko‘rsatib, Gadoyniyoz mahramni saroyi oliyga tushurib, uning izzat va ehtiromiga yarasha xizmat qilishlarini tayinlab maxsus kishi tayinlaydi. Nasrulloxon saroy ayonlari bilan majlis qilib bir noma yozdiradi, mazmuni har ikki davlat do‘stligi mutahkamlash va qilgan qiliqlari kechirilishga umidvorligi haqida edi. Bu nomani Gadoyniyoz mahramga berib, yana ko‘p e‘zoz va dilnavozliklar qilib, uzr tariqasida: *“Marv viloyatiga qo‘shib yuborishi bir necha zaruriy ishlar jihatidan bo‘lganligi, gina va tashvish yetkazish maqsadida emas edi”*, — deb, bu so‘zlarning nechog‘lik rostligini isbotlash uchun e‘tiborli amirlaridan Qandahor to‘qsoboni Gadoyniyoz mahramga qo‘shib, Xorazmga yuboradi. *“Gadoyniyoz mahram mazkur to‘qsobo bilan dargohi olampanoh (Olloqulixon) ziyoratiga musharraf bo‘ladi. Buxoro podshohining muhabbat mazmuni bilan yuborgan nomasini topshirib, ul podshohdan eshitgan so‘zini va o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi. Marv takasiga yorliq olib ketgan Ashur sardor ham bu asnoda kelib ul xalqning yorliq mazmunini qabul etganlarini bildiradi”*[17].

Tarixiy hujjatlarining shohidlik berishicha, Olloqulixon davrida qo‘shni Buxoro bilan uzoq vaqt yaxshi qo‘shnichilik aloqalari o‘rnatilgan bo‘lgan. Lekin bu hol XIX asrning 40-yillarining

boshiga kelib buzulib, ikkala xonlik orasida urush bo'lishigacha yetib keladi. Buning sabablari to'g'risida Ogahiy "Riyoz ud-davla" asarining "*Hazrati shahanshoh Qufron dastgoh bila Buxoro hokimi Amir Nasrulloning orasig'a nizo tushmog'ining kayfiyati va muvofaqat ohangi tuzulmog'ining ma'rifati*", — deb nomlangan bobida quyidagicha hikoya qiladi: "*Oллоhning cheksiz ilohiy madadi tufayli Olloqulixonning shuhrati yildan yilga orta borib atrofi jahonni tutdi. Ba'zi ichi qoralar, shu jumladan Buxoro amiri Nasrullo buni ko'rolmay fasod bo'ldilar. Aslida uzoq yillardan beri ikki xonlikning fuqarolari hamjihat bo'lib, to'kin-sochinlikda xotirjam va osudahol edilar. Oxir (Nasrulloxonning) buzuqlik hulqi va yomonlik fikrlashi taqozasi bilan rashku hasad nishi xotiri buzuq niyatli ba'zi fe'llari yomon ishni keltirib chiqardi-ki, do'stlik rishtalari uzilib o'rtaga nizo soldi. Ul jumladan uning qilgan ba'zi ishlarini bayon yetmoqlikni lozim ko'rindi. Chunki, bu asrani o'qigan donish ahli bilsinlarki, haq qaysi tarafdayu fasod qaysi tarafda. Biri ulkim, karratan sharot urus podshohiga do'stlik yakkajihatligini izhor qilib, (Olloqulixon) hazoati sohibqironga nisbatan g'azab va adovatni targ'ib qilib ishonchli kishilardan maktub yubordi. Shundan so'ng, Rusiyada yurgan Xorazmiya karvonlarini rus xalqi tutib qamadilar, ul hazrat (Olloqulixon) kamoli sabotli va ulug'vor bo'lganlaridan (Nasrulloxonning) bu nuqsonini ko'rmaganga olib, go'yo sezmaganday ayon bosdi[18].*

Xon saroyiga tashrif buyurgan elchi J.Abbot xon bilan uchrashuvda xonga Fors qilich va Hirot miltig'i, Hazorasp inoqiga esa miltiq sovg'a sifatida olib borganligini aytgan[19]. Xiva xonligini Buyuk Britaniya tasarrufiga olish maqsadida bu yerga yuborilgan ingliz elchisi o'z zimmasiga yuklatilgan rasmiy vazifani ado eta olmasdan orqaga qaytishga majbur bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xon tomonidan sovg'a qilingan to'n hamda ot elchi yoki mehmonlarga tegishli munosabat va xalq ko'z o'ngida xon marhamatiga sazovor bo'lgan muhtaram kishi ma'nosini ham anglatgan. Hukmdor qabuliga tashrif buyurgan N.Ignatyevning ma'lumotlariga asoslanib, elchilik vakillariga xonlik shaharlarida faqat mahalliy kiyim (chopon va salla)larda yurish tavsiya etilganligini bilish mumkin[20]. Chunki, sharq bozorlari aholi gavjum joy bo'lib, yevropacha kiyimdagi odam umumiy olomondan ajralib turgan. Natijada ular xalqning e'tiborini tortgan. To'n Xiva kelgan mehmonlar taqdirlanadigan muhim hadya elementini tashkil etgan. Bunday ustki kiyimga sazovor bo'lgan elchilardan biri N.Muravev bo'lib, unga parchadan chopon kiygizilib, qimmatbaho hind belbog'i bog'langan. Belbog'ning tagidan kumush xanjar taqilib, xon qabuliga kirgizligan[21]. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, to'n bilan birga salla uchun doka ham qo'shib berilgan. Bu tarib asosan saroy amaldorlaridan ulomalar va oqsoqollarga berilganligi hujjatlarda keltrilgan. Masalan, 1866-yilda sarpolarga qo'shib o'n ikki doka berilganligi qayd etilgan[22].

Xonlikda gazlama(Kumash, zarboft, gulnor)lar mashhur bo'lganligi, ko'p hollarda bu gazlamalar yuqori tabaqa vakillari, mamlakat hukmdorlari orasida sovg'a vazifasini ham o'taganligi

tadqiqot davomida aniqlandi. Jumladan, Eron bilan qabul marosmlarida sovg'a qilingani haqida ma'lumot bor[23].

Lolaboshida Eron elchiligi jazirama qum sahrolarida ko'pdan-ko'p mashaqqatlarni boshidan kechirgan holda 1851-yil iyul oyida Xiva shahriga etib keladi. Ammo Eron elchisi bu yerga kelgan kundan boshlaboq muzokaralarga kirishishni niyat qilgan bo'lsa ham bunga muyassar bo'la olmaydi. Chunki Xiva xoni Muhammad Amin bu vaqtda poytaxtda yo'q edi[24].

Ma'rifatparvar hukmdor sifatida tan olingan Muhammad Rahimxon II davrida Xivada kitob bosish yo'lga qo'yildi. 1874-yili xon topshirig'i bilan eronlik matbaachi Ibrohim Sulton litografiya — toshbosma usulida ishlaydigan bosmaxona ochdi. Dastgohlar Shveysariyaning Jeneva shahrida ishlab chiqarilgan. Bosmaxonaning ilk nashri "Devoni Munis" (1874) kitobi bo'lgan[25]. Keyinchalik Shermuhammad Munisning "Munis ul-ushshoq" (1879), Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" (1880) va "Xazoyin ul-maoniy" (1882), Muhammad Rizo Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" (1882), Muhammad Rahim Bahodirxonning "Devoni Feruz" (1897), "Majmuot ush-shuaro" (1909) kitoblari bosildi. Bu asarlar asosan sovg'a uchun nashr etilgan. Buni quyidagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. XX asr boshlarida Xivada bo'lgan rus sharqshunosi A.Samoylovich: "Xivaga kelgandan keyin men 70-yildan mavjud yagona litografiya shu yerda borligini ko'rdim va uning xonga qarashli ekanligini bildim. Litografiya o'zining doimiy binosiga ega emas, tashqaridan buyurtmalar olmaydi, bir necha yillar davomida ishlamay ham turadi. Chop qilingan kitoblar sotuvga chiqarilmaydi, ular xon tomonidan sovg'a qilinadi"[26], – deb qayd etadi.

O'ragnilgan manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki Turkiston (o'zbek) elchilik munosabatlari qadimiy tarixga ega bo'lib, u bundan uch ming yil muqaddam sarhadlarimizda tashkil topgan dastlabki davlatchilik uyushmalarining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan. Uning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari va amaliy yo'l-yo'rig'lari bu zamin allomalari asarlarida har tomonlama puxta ishlanib, asrlar mobaynida sayqal topib keldi. Tariximizning barcha davrlarida turkiy hukmdorlar o'z elchilik munosabatlarida bu sohada tarkib topgan qadimiy qonun-qoidalar va ajdodlar pand-nasihatlariga rioya yetishga harakat qilib kelganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Агзамова Г.А. Сўнгни ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. – Тошкент, – 2000. – Б.46.
2. Bayoniy. Shajarayi xorazmshohi. – 345– 6– 346– a b-lar.
3. Munis. Firdavs ul– iqbol. 186– a– b betlar.
4. Ogahiy. Jome' ul– voqeati sultoni. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instiuti, qo'lyoshalar majmuasi, tartib raqami 9786. – 188 b.
5. Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohi. – 326– 6 bet.

6. Ogahiy. Gulshani davlat. 96– a bet. 2. O‘sha asar. – 135– a bet
7. Игнатъев Н. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 году. – Санкт– Петербург: Государственная типография, –1897. – С.216.
8. Игнатъев Н. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 году. – Санкт– Петербург: Государственная типография, –1897. – С.216.
9. Bu davrda o‘zbek xonliklarida Usmonli turklar davlati hukmdoriga Xalifa sifatida qaralgan. Istambul esa Muqaddas yer sifatida ulug‘langan.
10. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. ... – С. 96.
11. Муҳаммад Алихон Ғафур. Хоразм сафари кундалиги (муаллифлар Н.Полвонов ва И.Бекжоновлар) – Т: “Янги аср авлоди”, – 2009.
12. Муҳаммад Алихон Ғафур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. – 37
13. Allayeva N.A. Xiva xonligi diplomatiyasi va savdo aloqalari (XVI– XIX asrlar) / To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr. – Toshkent: Akademnashr, – 2019.
14. Муҳаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 38– 39.
15. Муҳаммад Алихон Ғофур. Хоразм сафари кундалиги ... – Б. 38–39.
16. Муҳаммад Ризо Ерназарбий ўғли Огохий. Риёз уд– давла. – V жилд. – Тошкент. –1978. – 94 б.
17. Муҳаммад Ризо Ерназарбий ўғли Огохий. Риёз уд– давла. V жилд. – Тошкент. – 1978. – 94 б.
18. Муҳаммад Ризо Ерназарбий ўғли Огохий. Риёз уд– давла. V жилд. – Тошкент. – 1978. – 155б.
19. Аббот. Асарлар. – 1– том. – Б.,1.
20. Игнатъев Н. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 году. – Санкт– Петербург: Государственная типография, – 1897. – С.216.
21. Известия о Хиве с отделенных времен // Туркистанский сборник– СПб., – 1883. – Т. 386. – С. 71.
22. XIX asr Xiva davlat hujjatlari...– Т.II. 8– daftar. – 6b.19b.– b. 103, 126.
23. Turayeva S. XVIII asrning ikkinchi yarmi– XIX asrning 70– yillarida Xiva xonligi hunarmandchiligi tarixi. – Т., – В.70.
24. Rizoqulixon Hidoyat. – 62 b.
25. Язбердиев А. К вопросу о начальном периоде книгоиздательской деятельности Хивинской литографии (1874 – 1880) // Известия АН ТуркмССР Серия: Общественные науки. – Ашхабад, –1971. – №4. – С.58.
26. Публичная библиотека им. М.Е. Салтыкова–Щедрина – Архив А.Н.Самойловича, Ф. – 671, д. – 145, – л. 50.